

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№6 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-6>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабоев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Rashidova Manzura Bakhtiyorovna THE INFLUENCE OF CONFUCIAN TRADITIONS ON THE KOREAN LANGUAGE.....	5
2. Alisher Rustamov Abduhakimovich A SYSTEM OF EXERCISES AND TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH SKILLS OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS.....	10
3. Ziyayeva Kamola Ziyaiddinovna THE LINGUISTIC AND CULTURAL DIMENSIONS OF HUMOUR: A STUDY OF SPEECH GENRES AND THEIR ROLE IN COMMUNICATIN.....	15
4. Davlatova Xulkaroy Uktamovna, Botiova Valida Shuhrat qizi SPECIFIC ASPECTS OF SPEECH COMMUNICATION AND INTERNET COMMUNICATION.....	19
5. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	24
6. Pardayeva Iroda Mamayunusovna ALISHER NAVOIY IJODIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TASVIRI.....	29
7. Aliyeva Zebo Akram qizi MIRATIVLIK KATEGORIYASI GRAMMATIK KO‘RSATKICH SIFATIDA.....	35
8. Mirzayev Shukurullo Abduqodir o‘g‘li TOPIK II 53- YOZISH SAVOL TURLARI VA YOZISH USULLARI.....	41
9. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O‘RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	47
10. Hasanov Suhrob Shavkat ugli SYMBOLS AND ALLEGORIES IN THE PROSE OF ISAJON SULTAN.....	53
11. Улаш Нематович Бобоев МОДЕЛЬ СТРАТЕГИЙ ПЕРЕВОДА НА РУССКИЙ ЯЗЫК ШОК-ТЕЙМЕНТА В СМИ УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ.....	60
12. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	65
13. Eshimova Sharofat Kenjaboyevna SINESTEZIYA - METAFORANING BIR TURI SIFATIDA.....	70
14. Umirzoqova Oynisa THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TEMPORAL CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....	76
15. Alibekova Dilrabo Abdiraimovna COHISION OF NATURALISM, OPTIMISM AND REALISIM IN THE WORKS OF HECTOR MALOT AND THEODOR DREISER.....	83
16. Gulirukhsor Ruzikulova Gofur kizi A COMPARATIVE ANALYSIS OF FACE-RELATED IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK.....	88
17. Xalimova Firuza Rustamovna MATN DOIRASIDA BADIY KONSEPTNING SHAKLLANISHI.....	96
18. Xamidova Dilorom Olimjonovna LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA BADIY TILNING IFODALANISHI.....	102

19. Xaydarova Nigora Tuxtasunovna AYOL VA ERKAKLARNING MUHOQOT USULLARI.....	107
20. Shamshoda Rustamova O'SMIR BOLALAR NUTQIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING IFODALANISHI.....	112
21. Karshieva Shokhista Kholikul kizi SYNTAX AND SEMANTICS OF ERGATIVE CONSTRUCTIONS.....	119
22. Musayeva Shaxlo Kudratovna QISSALARDA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI VOQEALARI TASVIRINING QIYOSIY TAHLILI. (Nosir Fozilov asarlari misolida).....	125
23. N.J.Sulaymanova IJOBIY BAHO PRAGMATIK MAZMUNINI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLAR.....	131
24. Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna O'ZBEK VA FORS TILLARIDA XULQ-ATVORNI IFODALOVCHI LEKSIK KONSTRUKSIYALAR TASNIFI.....	135
25. Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna THE ROLE OF UZBEK AND ENGLISH PHRASEOLOGY IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION.....	139
26. Gulruxsor Xoliyorova TERMINOLOGIK TEZAVURSLARNING LINGVISTIK XOSLANISHI.....	143
27. Alisher Rustamov Abduhakimovich THE HISTORY OF TEACHING AND LEARNING ENGLISH WRITING SKILLS IN UZBEKISTAN (POST-SOVIET STATE). PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC APPROACH.....	149
28. Kubaeva Nafisa Alisher qizi UNLOCKING THE POWER OF IDIOMS: HOW FIGURATIVE LANGUAGE ENRICHES COMMUNICATION.....	154
29. Dilafro'z Amonova KOREYS ADABIYOTI TARIXIDA AYOLLAR IJODIYOTI.....	158
30. Obruyeva Gulchexra Xamrokulovna ATOQLI OTLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDA APELLATIVIZATSIYAGA UCHRASHI...164	164
31. Esanova Maftuna Bahodirovna YUNON-LOTIN TIBBIYOT ATAMALARINING TARIXI VA ULARNING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O'RNI.....	168
32. Azimova Yulduz Baxtiyor qizi AVTOBIOGRAFIK DISKURSNING UMUMIY TAVSIFI.....	173
33. Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna KOMPOZITSION TASHKILLANISH VA PEYZAJ MODIFIKATSIYASI.....	177



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Umirzoqova Oynisa,

PhD Researcher

Department of English language theory
Samarkand state institute of foreign languages
email: babbylite@gmail.com

THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TEMPORAL CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15069174>

ABSTRACT

This article focuses on the field of comparative linguistics and presents a comparative analysis of temporal categories in Uzbek and English. The temporal category is a fundamental aspect of grammar found in all languages. It is widely recognized that the concept of an action or state taking place (or not taking place) is logically connected to time. In other words, any action inherently possesses the characteristic of being carried out or not at a specific moment, period, or point in time. The concept of tense in verbs is relative and is determined in comparison with the moment of speech. Accordingly, three main tenses are initially distinguished in verbs (past tense, present tense, future tense). The meaning of tense is realized through grammatical markers used in the structure of the verb.

Keywords: linguistics, comparative linguistics, tense category, verb part of speech, past tense, present tense, future tense, morpheme, grammatical meaning.

Umirzoqova Oynisa Zokir qizi,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz tili nazariyasi kafedrası
tayanch doktoranti
email: babbylite@gmail.com

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ZAMON KATEGORIYASINING QIYOSIY TAHLILI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola qiyosiy tilshunoslik sohasiga bag'ishlangan bo'lib, unda o'zbek va ingliz tillaridagi zamon kategoriyalari qiyoslab tahlil qilingan. Zamon kategoriyasi barcha tillarda mavjud bo'lib til grammatikasining asosiy ustunlaridan biri sanaladi. Ma'lumki, harakat (yo holat)ning voqe bo'lish (yoki bo'lmaslik) tushunchasi mantiqan zamon bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni ma'lum bir harakat ma'lum bir zamon (payt, vaqt)da bajarilish yoki bajarilmaslik xususiyatiga ega. Fe'llardagi zamon tushunchasi nisbiy bo'lib u nutq so'zlanib turgan paytga nisbatan qiyoslangan holda aniqlanadi. Shunga ko'ra fe'llarda dastlab uchta zamon tushunchasi belgilanadi (o'tgan zamon, hozirgi zamon,

kelasi zamon). Zamon ma'nosi esa fe'l tarkibida qo'llangan grammatik ko'rsatkichlar orqali reallashadi.

Kalit so'zlar: qiyosiy lingvistika, tilshunoslik, fe'l so'z turkumi, zamon kategoriyasi, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, morfema, grammatik ma'no.

Умирзокова Ойниса Зокировна,
Аспирантка Самаркандского
Государственного института
Иностранных языков
Кафедра теории английского языка
email: babbylite@gmail.com

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ ВРЕМЕНИ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена сравнительному языкознанию и представляет собой сравнительный анализ категории времени в английском и узбекском языках. Категория времени существует во всех языках и является одной из основных опор грамматики. Известно, что понятие совершения (или несовершения) действия (или состояния) логически связано со временем, то есть определённое действие обладает характеристикой выполнения или невыполнения в определённый момент (период, время). Понятие времени у глаголов является относительным, так как оно определяется в сравнении с моментом речи. Согласно этому, в глаголах первоначально выделяются три категории времени: прошедшее, настоящее и будущее. Значение времени реализуется через грамматические показатели, используемые в составе глагола.

Ключевые слова: лингвистика, сравнительное языкознание, категория времени, часть речи глагол, прошедшее время, настоящее время, будущее время, морфема, грамматическое значение.

KIRISH.

Tillarda eng keng tarqalgan va muhim fe'l kategoriyalaridan biri zamon kategoriyasidir. Fe'ling zamon bilan bog'liq xususiyati ish-harakatning nutq sodir bo'layotgan paytga nisbatan qachon amalga oshayotganini bildiradi. Nazariy jihatdan, harakat uch xil holatda ro'y berishi mumkin: gapirishdan avval (o'tgan zamon), aynan gapirish jarayonida (hozirgi zamon) yoki gapirishdan keyin (kelasi zamon). Aksariyat tillarda zamon grammatik jihatdan ana shu uch asosiy ma'noda ifodalanadi. Hozirgi zamon fe'llari ayni paytda sodir bo'layotgan yoki davom etayotgan harakatni anglatadi. Bu harakat odatda hozirgi vaqt doirasida yuz berib, hali yakunlanmagan bo'ladi. Masalan, ingliz tilida: I am reading a book. – Men hozirda kitob mutolaa qilmoqdaman. Ushbu jumla harakatning aynan hozirgi paytda sodir bo'layotganini bildiradi. Ya'ni, gapirilayotgan vaqtda kitob o'qish jarayoni davom etmoqda. Bunday jumlar doimiy emas, balki aynan shu lahzadagi harakatni ta'kidlaydi. Masalan, agar biror kishi mendan "Hozir nima qilayapsan?" deb so'rasa, men "Men kitob o'qiyapman" deb javob berishim mumkin. Bu harakat hali tugallanmagan va hozirgi paytda davom etayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, hozirgi zamon ba'zan yaqin kelajakda rejalashtirilgan ish-harakatlarni ifodalash uchun ham qo'llaniladi. Masalan: I am meeting my friend tomorrow. – Men ertaga do'stim bilan uchrashaman. Bu jumlada harakat hali sodir bo'lmagan bo'lsa-da, u yaqin kelajak uchun rejalashtirilgani sababli hozirgi zamon shaklida ifodalangan. Demak, fe'ling zamon kategoriyasi ish-harakatning vaqt doirasidagi o'rnini aniq belgilash uchun muhim grammatik vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbek tilida hozirgi va kelasi zamon fe'llari

O'zbek tilida hozirgi va kelasi zamon quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Hozirgi-kelasi zamon fe'li

Hozirgi-kelasi zamon fe'li ish-harakatning aynan nutq jarayonidayoki yaqin kelajakda sodir bo'lishini bildiradi. Bunday fe'llar fe'l o'zagiga –a (-y) ravishdosh yasovchi morfemani qo'shish va uni shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlash orqali yasaladi [6, 810].

Misollar: Darsni hoziroq boshlaymiz. (Ish-harakat ayni damda yoki yaqin kelajakda amalga oshishi kutilmoqda.)

Akamlar bugun ketishadi. (Ish-harakat bugungi kun ichida sodir bo'lishi rejalashtirilgan.)

2. Hozirgi zamon davom fe'li

Hozirgi zamon davom fe'li ish-harakatning aynan nutq jarayonida sodir bo'layotganligini bildiradi. Bu ma'no fe'lga –yap, -yotib, -moqda morfemalarini qo'shish va ularni shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlash orqali ifodalanadi.

Misollar: Kitob o'qiyapmiz. (Ish-harakat aynan hozirgi paytda davom etmoqda.)

Kitob o'qiyotibmiz. (Ish-harakat jarayonda ekanligi ta'kidlanmoqda.)

Kitob o'qimoqdamiz. (Nutq jarayonida ish-harakatning davomiyligi bildirilmoqda.)

O'zbek tilidao'tgan zamon fe'llari

O'tgan zamon fe'li ish-harakatning nutq sodir bo'lishidan oldin amalga oshganligini bildiradi. O'zbek tilida o'tgan zamon quyidagi shakllarga bo'linadi:

1. Yaqin o'tgan zamon

Yaqin o'tgan zamon fe'li o'zagiga -di affiksini qo'shish va shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlash orqali yasaladi.

Misollar: Men kitob o'qidim. U maktabga bordi.

2. Uzoq o'tgan zamon

Uzoq o'tgan zamon fe'li -gan affiksini olgan sifatdosh shakli bilan, edi, ekan kabi to'liqsiz fe'llar bilan birikib yasaladi.

Misollar: Men kitob o'qiganman. (Oldin sodir bo'lgan ish-harakat haqida so'z yuritilmoqda.)

Men kitob o'qigan edim. (O'tgan zamonda biror ish-harakatning amalgaoshganligi ta'kidlanmoqda.)

3. O'tgan zamon hikoya fe'li

Bu shakl fe'l o'zagiga -b (ib) ravishdosh yasovchi affiksini qo'shish va uni edi yordamchi fe'li bilan biriktirish orqali yasaladi.

Misollar: Men kitob o'qib edim. U uyga borib edi.

4. O'tgan zamon davom fe'li

O'tgan zamon davom fe'li ish-harakatning o'tgan zamonda uzoq yoki ma'lum bir vaqt davomida sodir bo'lganligini bildiradi [1, 218]. Bu shakl -(a)r affiksini olgan hozirgi zamon sifatdoshi yoki -yotgan, -moqda affiksini olgan hozirgi zamon sifatdoshini edi yordamchi fe'li bilan biriktirish orqali yasaladi.

Misollar: U har kuni kitob o'qir edi. (Uzoq davom etgan ish-harakat.)

U kitob o'qiyotgan edi. (O'tgan zamonda ma'lum bir paytda davom etayotgan harakat.) Men kitob o'qimoqda edim. (O'tgan zamonda biror vaqt davomida sodir bo'lgan ish-harakat.)

5. O'tgan zamon maqsad fe'li

Bu shakl fe'l o'zagiga -moqchi affiksini qo'shish va edi yordamchi fe'li bilan biriktirish orqali yasaladi. Shuningdek, -digan affiksini olgan kelasi zamon sifatdoshi edi yordamchi fe'li bilan biriktirish orqali ham hosil qilinadi.

Misollar: Men kitob o'qimoqchi edim. (O'tgan zamonda bajarilishi rejalashtirilgan, ammo amalga oshmagan ish-harakat.)

Men bugun ketmoqchi edim. (Bajarilishi kutilgan, ammo sodir bo'lmagan ish-harakat.)

Men bugun kitob o'qadigan edim. (Maqsad qilingan ish-harakat amalga oshmagan yoki kechikkan.)

O'zbek tilida fe'l zamonlari ish-harakatning qachon amalga oshganligi yoki amalga oshish ehtimolini ifodalash uchun muhim grammatik vositalardan biridir. Hozirgi-kelasi zamon fe'llari ayni paytda yoki kelajakda sodir bo'lishi kutilayotgan ish-harakatni ifodalasa, o'tgan zamon fe'llari esa nutq sodir bo'lishidan oldin ro'y bergan voqealarni ifodalashda qo'llaniladi [10, 80]. O'tgan zamonning turli shakllari ish-harakatning qachon va qanday amalga oshganligini aniqroq ko'rsatishga yordam beradi.

O'tgan zamon shakllari	Misollar
------------------------	----------

Yaqin o'tgan zamon:	1. Men maktabga bordim - Biz maktabga bordik. 2. Sen maktabga bording - Siz maktabga bordingiz. 3. U maktabga bordi - Ular maktabga bordilar.
Uzoq o'tgan zamon:	1. Men maktabga borganman - Biz maktabga borganmiz. 2. Sen maktabga borgansan - Siz maktabga borgansiz. 3. Men maktabga borgan edim. - Biz maktabga borgan edik. 4. Sen maktabga borgan ekansan - Siz maktabga borgan ekansiz. 5. U maktabga borgan emish - Ular maktabga borgan emish(lar).
O'tgan zamon hikoya fe'li:	1. Men maktabga boribman - Biz maktabga boribmiz. 2. Men maktabga borib edim - Biz maktabga borib edik. 3. Sen maktabga boribsan - Siz maktabga boribsiz. 4. Sen maktabga borib eding - Siz maktabga borib edingiz va hokazo.
O'tgan zamon davom fe'li:	1. Men maktabga borar edim - Biz maktabga borar edik. 2. Men maktabga borardim - Biz maktabga borardik. 3. Men maktabga borayotgan edim - Biz maktabga borayotgan edik. 4. Men maktabga bormoqda edim - Biz maktabga bormoqda edik va hokazo.
O'tgan zamon maqsad fe'li:	1. Men maktabga bormoqchi edim - Biz maktabga bormoqchi edik. 2. Men maktabga boradigan edim - Biz maktabga boradigan edik va hokazo

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbek tilidagi kelasi zamon shakllari boshqa tillardagi kelasi zamon ifodalash usullaridan sezilarli darajada farq qiladi. O'zbek tilida sof kelasi zamon ma'nosini aniq ifodalovchi maxsus fe'l shakli mavjud emas. Yuqorida ta'kidlanganidek, fe'lning bir xil shakli ham hozirgi zamonni, ham kelasi zamonni anglatishi mumkin. Boshqacha aytganda, o'zbek tilida kelasi zamon tushunchasi turli usullar orqali ifodalanadi [4, 590]. O'zbek tilida kelasi zamon ikki asosiy shaklda ifodalanadi: kelasi zamon gumon fe'li va kelasi zamon maqsad fe'li.

1. Kelasi zamon gumon fe'li

Bu shakl ish-harakatning kelajakda sodir bo'lishi ehtimolini bildiradi, ya'ni gapiruvchining kelajakdagi voqelik yuz berishiga nisbatan ishonch darajasi past bo'lishi mumkin. Ushbu ma'no fe'l asosiga -ar affiksali morfemasini qo'shish orqali hosil qilingan sifat-doshni shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlash orqali ifodalanadi:

- Men ishlarman – Biz ishlarmiz.

- Sen ishlarsan – Siz ishlarsiz.

- U ishlar – Ular ishlar.

2. Kelasi zamon maqsad fe’li

Bu shakl kelajakda bajarilishi rejalashtirilgan, mo’ljallangan yoki maqsad qilib olingan harakatni bildiradi. Bunday ma’no quyidagi ikki usulda ifodalanadi:

1) Fe’l asosiga -moqchi affiksini qo’shish va shaxs-son qo’shimchalari bilan tushlash:

- Men ishlamoqchiman – Biz ishlamoqchimiz.

- Sen ishlamoqchisan – Siz ishlamoqchisiz.

- U ishlamoqchi – Ular ishlamoqchi.

2) Hozirgi zamon ravishdoshi shakliga -digan affiksini qo’shish va shaxs-son qo’shimchalari bilan tushlash:

- Men ishlaydiganman – Biz ishlaydiganmiz.

- Sen ishlaydigansan – Siz ishlaydigansiz.

- U ishlaydigan – Ular ishlaydigan.

Bu jihatlarni hisobga olsak, o’zbek tilida kelasi zamon tushunchasi bizga yaxshi tanish bo’lgan hind-yevropa tillaridagi kelasi zamon ifodalari to’liq mos kelmaydi[3, 33]. Barcha tillarda grammatik ma’no turlarini ifodalashning o’ziga xos usullari mavjud bo’lib, o’zbek tilidagi kelasi zamon shakllari ham shu o’ziga xoslikning yorqin namunasidir.

Ingliz tilida o’tgan zamon ma’nosini ifodalovchi ba’zi ibora va birikmalar ham bor-ki, ularni ma’noda farqlay olishimiz kerak. Shulardan bir nechtasini ko’rib chiqamiz.

“Used to” va “Would” ning o’tgan zamondagi ishlatilishi

Ingliz tilida “used to + V1” o’tgan zamonda muntazam yoki odat tusiga kirgan, lekin hozirda amalga oshmaydigan ish-harakatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu tuzilma o’zbek tilida “qilar edi”, “odatda qilardi” ma’nolariga mos keladi.

1. “Used to” ning ishlatilishi

“Used to” odatiy ravishda sodir bo’lgan harakat yoki holatni ifodalash uchun ishlatiladi. Odatda, bu harakat hozirda sodir bo’lmaydi yoki bajarilmaydi.

- I used to play tennis a lot, but I don’t have enough time now.

(Oldin men ko’p tennis o’ynardim, lekin hozir bunga vaqtim yo’q.)

- Nick used to be rich, but now he is poor.

(Nick oldin boy edi, lekin hozir kambag’al.)

2. “Used to” ning inkor shakli

“Used to” ning inkor shakli “used not to + V1” yoki qisqaroq shaklda “didn’t use to + V1” tarzida tuziladi.

- I used not to like him.

(Menga u oldin yoqmas edi.)

- I didn’t use to smoke, but I can’t help smoking now.

(Men oldin chekmaganman, lekin hozir chekmasdan turolmayman.)

3. “Used to” davomiylikni ifodalovchi gaplarda ishlatilmaydi.

Agar gapda harakatning qancha davom etganligi haqida ma’lumot bo’lsa, “used to” o’rniga Past simple ishlatiladi.

- Bill Murphy worked for the police force for over seventeen years.

(Bill Myorfi politsiyada o’n yetti yildan ortiq ishladi.)

- Bill Murphy used to work for the police force for over seventeen years. (Noto’g’ri)

4. “Used to” va “Would” o’rtasidagi farqlar

Ba’zi holatlarda “used to” o’rniga “would” ham ishlatilishi mumkin, ammo ularning o’rtasida farq bor:

1) “Used to” odatiy, takroriy harakatlar bilan birga holatlarni ham ifodalashi mumkin, “would” esa faqat harakatlar bilan ishlatiladi.

- Bill Murphy used to work for the police force. But he doesn’t now.

(Bill Myorfi ilgari politsiyada ishlagan, lekin hozir ishlamaydi.)

- She would (used to) leave the door unlocked whenever she was at home.

(Uyda bo'lganida eshikni ochiq qoldirardi.)

- We used to live next to a railway line. Every time the train went past, the whole house would shake.

(Biz temiryo'l yonida yashardik. Har safar poyezd o'tganida, butun uy titrardi.)

2) "Would" so'roq va inkor gaplarda ishlatilmaydi.

- Did you use to work when you were a student?

(Talabalik chog'ingizda ishlardizmi?)

- Would you work when you were a student? (Noto'g'ri)
- I didn't use to like coffee, but now I drink it every day.

(Oldin qahvani yoqtirmas edim, lekin hozir har kuni ichaman.)

- I wouldn't like coffee, but now I drink it every day. (Noto'g'ri)

3) "Would" holat fe'llari bilan ishlatilmaydi.

Holat fe'llari (state verbs) – bu sevgi, his-tuyg'u, mulk, idrok va fikrlash jarayoni bilan bog'liq fe'llar bo'lib, ular bilan "would" ishlatilmaydi.

Bunday fe'llarga quyidagilar kiradi: like, feel, forget, know, look, own, regret, taste, think, smell va boshqalar.

- I used to love her, but I don't anymore.

(Men uni oldin sevardim, lekin endi emas.)

- I would love her, but I don't anymore. (Noto'g'ri)

- "Used to" – o'tgan zamonda odatiy bo'lgan, lekin hozir sodir bo'lmaydigan holat va harakatlarni ifodalaydi.

- "Used to" ning inkor shakli – "used not to" yoki "didn't use to".

- "Would" ba'zi holatlarda "used to" bilan almashtirilishi mumkin, lekin u faqat odatiy harakatlar bilan ishlatiladi, holat fe'llari bilan emas.

- "Would" so'roq va inkor gaplarda ishlatilmaydi, uning o'rniga "used to" ishlatiladi.

-Davomiylikni ifodalovchi gaplarda "used to" o'rniga past simple ishlatiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, fe'llarning zamon kategoriyasi gap tarkibidagi asosiy unsurlardan biri bo'lib, u tilshunoslikda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ushbu lisoniy fenomenni ikki til doirasida qiyosiy tahlil qilish orqali ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash maqsad qilingan. Shunday xulosaga kelish mumkinki: har ikkala tilda ham o'tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllari mavjud bo'lishiga qaramay, ularning yasalishi, qo'llanilish tartibi va semantik xususiyatlarida muayyan farqlar kuzatiladi. Boshqacha aytganda, har bir tilning o'ziga xos grammatik tuzilishi bo'lib, zamon shakllarining qo'llanilish usullari va ularning ifodalash imkoniyatlari birbiridan farq qiladi. Shu bois, ushbu farqlarni o'rganish va tahlil qilish nafaqat grammatik bilimlarni chuqurlashtirish, balki tillar aro o'zaro ta'sir va tafovutlarni tushunishga ham yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov G', Shukurov Sh, Mahmudov Q, "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" – T., 2008. – 218.
2. Abdukhalilova D. Semantic properties of pairs of words. The Journal of National University, 2020 – 117-118.
3. Karimova N., & Usmonhodjaeva, M. From songs for reading a foreign language use. International scientific and technical journal innovation technical and technology, 2020 – 32-33.
4. Махмудов Қ. Ш., Санакулов, З. И., Шайхисламов, Н. З., & Қаршиева, Д. Э. Педагогик таълимда "Кластер". Science and Education, 1(7), 2020 – 587-593
5. Қаршиева Д.Э. Талаба-ёшларга таълим беришда интерфаол методлардан одилонга фойдаланиш. Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар, 1, 2019 – 118.
6. Rahmatov F. Tillarda zamon kategoriyasini umumiy-qiyosiy o'rganish. Academic Research in Educational Sciences. 1, 2020 – 807-814.

7. Раҳматов, Ф. & Тилолова Г. Чет тилини ўқитишда хориж тажрибаси ва грантларнинг аҳамияти. Чет тилини ўқитишда методика, малака ва тажриба, 2013 – 259-261.
8. Sanakulov Z. Affixation as one of the important objects of grammar. In Current issues of 21st century linguistics and translation studies: theory, practice, innovation. NUU, 2020–89-90.
9. Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R, Boqiyeva G.H, Qurbonova M.M, Yunusova Z.Q, Abuzalova M.Q “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslik Toshkent –2010
10. Санакулов, З.И. Using of Fiction in Teaching Foreign Languages as a Factor for Formation of Reproductive Competence. Иностранные языки в Узбекистане, (2), 2019 – 77-83.
11. Usmonhodjaeva, M.A., & Shirnazarova, Z.A. Questions from Foreign language teaching in educational bodies. Epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 6(6), 2020 – 448-451.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000